

## Pazanda qiz - oila tayanchi



08.10.2022

## Pazanda qiz - oila tayanchi

Bugun 3- TTJ da YeRB-114 guruh qizlari bilan pazandalik sirlari haqida dildan suhbatlashdik. Kechagina maktabni tamomlab ota-ona bag'ridan o'qish niyatida ilm izlab poytaxtga kelgan yosh qizlarga nafaqat bilim berish, qolaversa, to'g'ri tarbiya berish , ularni mustaqil hayotga o'rgatish biz o'qituvchi va murabbiylarni vazifamiz. Shu maqsadda bugun ularga somsa pishirish sir-asrorlarini o'rgatishni niyat qildim. Mazali va foydali qovoqli somsamiz hammamizga manzur bo'ldi. Bunday tadbirlarni ko'plab tashkillashtiraylik deb so'rashdi. Hammaga yoqimli ishtaha tilaymiz.



**YeRB fakulteti tyutori D. Egamova axboroti**